

QO'LYOZMA MEROSNI MUHOFAZA QILISHDA TURKIYANING ILG'OR LABORATORIYA TAJRIBALARI

*Kamoliddin Behzod nomli Milliy
rassomlik va Dizayn instituti, "Amaliy
bezak san'ati" kafedrası dotsenti
Xaytmetov Dilshodjon Turayevich*

Annotatsiya: Mazkur maqola TİKA tashkiloti tomonidan Turkiyada o'tkazilgan "Qo'lyozmalarni muhofaza qilish va ta'mirlash" mavzusidagi seminar natijalarini tahlil qiladi. Maqolada Turkiyaning ilg'or laboratoriya tajribalari, qo'lyozmalarni saqlash va restavratsiya qilishda qo'llanilayotgan zamonaviy texnologiyalar, shuningdek, ushbu tajribani O'zbekiston amaliyotiga integratsiya qilish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Olingan bilim va tajribalar mahalliy qo'lyozma fondlarini zamonaviy talablarga mos ravishda muhofaza qilish va kelgusi avlodga yetkazishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar. Qo'lyozma meros, restavratsiya, konservatsiya, Turkiya tajribasi, O'zbekiston, TİKA seminari, laboratoriya texnologiyalari.

Аннотация: Статья анализирует результаты семинара по теме «Сохранение и реставрация рукописей», организованного организацией TİKA в Турции. В статье рассматривается опыт ведущих турецких лабораторий, современные технологии сохранения и реставрации рукописей, а также возможности внедрения этого опыта в практику Узбекистана. Подчеркивается важность полученных знаний и опыта для сохранения местных фондов рукописей в соответствии с современными требованиями и передачи их будущим поколениям.

Ключевые слова: рукописное наследие, реставрация, консервация, турецкий опыт, Узбекистан, семинар TİKA, лабораторные технологии

Abstract: This article analyzes the results of the seminar on "Manuscript Conservation and Restoration" organized by TİKA in Turkey. It examines the experience of advanced Turkish laboratories, modern technologies used in the preservation and restoration of manuscripts, and the possibilities of integrating this experience into practice in Uzbekistan. The study emphasizes the significance of the acquired knowledge and skills for protecting local manuscript collections in accordance with contemporary standards and transmitting them to future generations.

Keywords: manuscript heritage, restoration, conservation, Turkish experience, Uzbekistan, TİKA seminar, laboratory technologies

Qo'lyozma merosning madaniy va ilmiy ahamiyati. Qo'lyozma meros har bir xalqning ko'p asrlik ma'naviy tafakkuri, ilmiy salohiyati va madaniy rivojlanish darajasini namoyon etuvchi bebaho boylik hisoblanadi. Shuni ta'kidlash joizki, qo'lyozma asarlar nafaqat tarixiy ma'lumot manbai, balki millatning ma'naviy o'zligini anglash va ilmiy an'alarini tiklashda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, qo'lyozmalar orqali avlodlar davomiyligi, ilmiy maktablar faoliyati, til, yozuv va san'at rivojining bosqichlari haqida boy ma'lumot olish mumkin. Ular ichida tarix, falsafa, tibbiyot, astronomiya, adabiyot, geografiya va san'at sohalariga oid nodir asarlar mavjud bo'lib, har biri o'z zamonining ilm-fan darajasini ifodalaydi. Bu esa, o'z navbatida, qo'lyozmalarni muhofaza qilish, tiklash va kelajak avlodga asl holatida yetkazish borasidagi ilmiy va amaliy ishlarning dolzarbligini belgilaydi. Mazkur jarayon nafaqat arxiv va kutubxona sohaları uchun, balki madaniy merosni asrash bo'yicha davlat siyosatida ham muhim o'rin tutadi.

Shuni qayd etish kerakki, jahon miqyosida qo'lyozmalarni saqlash va ta'mirlash bo'yicha ilg'or tajribalar Turkiya, Eron, Misr, Italiya va Yaponiya kabi mamlakatlarda muvaffaqiyatli yo'lga qo'yilgan. Xususan, Turkiyadagi RAMI kutubxonasi qoshidagi maxsus laboratoriyalar qo'lyozmalarni fizik va kimyoviy jihatdan muhofaza qilish bo'yicha zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangani bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur holat O'zbekistondagi qo'lyozma fondlarini saqlash va restavratsiya qilish tizimini takomillashtirishda Turkiya tajribasini o'rganishning ilmiy asoslangan yo'nalish ekanini ko'rsatadi.

Turkiya qo'lyozma merosini asrash, tadqiq qilish va raqamlashtirish sohasida jahon miqyosida ilg'or davlatlardan biri hisoblanadi. Shuni ta'kidlash joizki, mamlakat hududida islom sivilizatsiyasi davridan to bugungi kungacha saqlanib kelayotgan yuz minglab nodir qo'lyozmalar mavjud. Ular orasida tarix, tibbiyot, falsafa, geografiya, qo'lyozma naqqoshlik va xattotlik san'atiga oid asarlar katta ilmiy ahamiyatga ega.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Turkiya hukumati qo'lyozma merosni muhofaza qilishni milliy madaniy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilagan. Bu yo'nalishda bir qator ilmiy muassasalar faoliyat yuritadi. Jumladan, **Sulaymoniya qo'lyozmalar kutubxonasi, Topqopi saroyi kutubxonasi, Milliy kutubxona (Millî Kütüphane), TİKA (TİKA)** tashkiloti huzuridagi ilmiy laboratoriyalar hamda yaqin yillarda faoliyati kengaytirilgan **RAMI kutubxonasi** shular jumlasidandir. Bu kutubxonalaridagi maxsus laboratoriyalar qo'lyozmalarni fizik va biologik zararlanishdan muhofaza qilish, qog'oz, siyoh, muqova va bo'yoq tarkibini tahlil qilish, restavratsiya va raqamlashtirish kabi ishlarni amalga oshiradi. Xususan, RAMI kutubxonasida zamonaviy jihozlangan restavratsiya ustaxonalari, harorat va namlikni avtomatik tarzda boshqaruvchi muhit nazorati tizimlari, yuqori aniqlikdagi skaner va optik uskunalar mavjud. Bu, o'z navbatida, Turkiyaning ilmiy markazlari faqat qo'lyozmalarni saqlash emas, balki ularni tadqiq qilish va jahon ilmiy jamoatchiligiga

taqdim etishda ham yetakchi o'rinda ekanini ko'rsatadi. Mamlakatdagi mazkur infratuzilmalar TIKA tashkiloti orqali boshqa davlatlar bilan hamkorlikda amaliy seminarlar, malaka oshirish kurslari va ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etish imkonini yaratadi.

Mazkur holat Turkiya tajribasini o'rganish orqali O'zbekistondagi qo'lyozma fondlari va laboratoriya bazasini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Mavzuning dolzarbligi (O'zbekiston uchun ahamiyati). Shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston zamini azaldan ilmiy va madaniy taraqqiyot markazi sifatida jahon sivilizatsiyasiga katta hissa qo'shgan. Bu yurtidan yetishib chiqqan olimlar, mutafakkirlar va xattotlar yaratgan minglab qo'lyozma asarlar bugungi kunda ham xalqimizning ma'naviy yutug'i sifatida yuksak qadrlanadi. Biroq tahlillar shuni ko'rsatadiki, qo'lyozma fondlarida saqlanayotgan ko'plab nodir namunalar vaqt o'tishi bilan tabiiy sharoit, biologik ta'sir va noto'g'ri saqlash oqibatida shikastlanmoqda. Qo'lyozma merosni muhofaza qilish va restavratsiya qilish tizimini ilg'or xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Turkiyaning ilmiy markazlarida faoliyat yuritayotgan zamonaviy laboratoriyalar, qo'lyozmalarni raqamlashtirish va fizik-kimyoviy tiklash usullari bu yo'nalishda amaliy namuna bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistondagi kutubxona va muzeylar tizimida qo'lyozmalarni asrash va ularning elektron nusxalarini yaratish jarayonlariga ilg'or texnologiyalarni tatbiq etishda Turkiya tajribasini o'rganishning katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, TIKA tashkiloti bilan hamkorlikda o'tkazilayotgan malaka oshirish kurslari va seminarlar mahalliy mutaxassislarning restavratsiya sohasidagi bilim va ko'nikmalarini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Milliy qo'lyozma merosni asrab-avaylash, uni kelgusi avlodga asl holatida yetkazish hamda xalqaro ilmiy maydonda munosib tarzda namoyish etish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Qo'lyozmalarni muhofaza qilishda Turkiya tajribasi: ilg'or laboratoriyalar faoliyati. Turkiyada qo'lyozma asarlarni muhofaza qilish va restavratsiyalash sohasi davlat darajasida qo'llab-quvvatlanadigan ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mamlakatdagi ilg'or laboratoriyalar nafaqat moddiy jihatdan zamonaviy uskunalar bilan ta'minlangan, balki yuqori malakali mutaxassislar tomonidan boshqariladi. Bu markazlar orasida Anqara shahridagi Milliy kutubxona, Istanbuldagi Sulaymoniya qo'lyozmalar kutubxonasi, TIKA tashkiloti loyihalari doirasida faoliyat yurituvchi restavratsiya laboratoriyalari hamda yaqin yillarda tubdan yangilangan RAMI kutubxonasi alohida ahamiyatga ega.

RAMI kutubxonasi Turkiyaning eng yirik ilmiy-ma'naviy markazlaridan biri bo'lib, u yerda 230 000 ta qo'lyozma, 500 000 dan ziyod toshbosma kitoblar va 300

000 ta kitob bo'lmagan materiallar saqlanadi. Kutubxona qoshidagi restavratsiya laboratoriyasi qog'oz, teridan ishlangan muqova va siyoh tarkibini fizik hamda kimyoviy tahlil qilish, ularni tiklash va raqamlashtirish bilan shug'ullanadi. Barcha jarayonlar maxsus harorat va namlikni nazorat qiluvchi muhitda olib boriladi. Bundan tashqari, Sulaymoniya qo'lyozmalar kutubxonasida ham katta qo'lyozma fondi mavjud bo'lib, bu Turkiya qo'lyozma merosini asrashda ilmiy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Kutubxona qoshidagi ilmiy-tadqiqot laboratoriyasida qo'lyozmalarni biologik va mikroskopik tahlil qilish, hasharot va mikroflora ta'siridan himoya qilish, shuningdek, tarixiy siyoh tarkibini o'rganish bo'yicha ilmiy ishlar amalga oshiriladi.

TIKA tashkiloti ham qo'lyozmalarni muhofaza qilish sohasida muhim ro'l o'ynaydi. TIKAning Turkiya va boshqa mamlakatlarda amalga oshirayotgan loyihalari doirasida qo'lyozma restavratsiyasi bo'yicha maxsus ustaxonalar tashkil etilgan. Bu ustaxonalarda qog'oz tiklash, tabiiy pigmentlardan foydalanib bo'yoq tayyorlash, qoplamalarni tiklash va raqamli arxiv yaratish kabi ishlarning barchasi xalqaro standartlarga muvofiq ravishda olib boriladi.

Hozirgi kunda Turkiyadagi eng zamonaviy ilmiy markazlardan biri – RAMI kutubxonasi – qo'lyozmalarni muhofaza qilishda innovatsion yondashuvlarni amalda joriy etgan muassasa sifatida alohida o'rin tutadi. Bu kutubxonadagi laboratoriyalar yuqori aniqlikdagi skanerlar, ultrabinafsha nurlar orqali tahlil uskunalari, mikrobiologik xavfni aniqlovchi sensorlar va raqamli monitoring tizimlari bilan jihozlangan.

Turkiyaning qo'lyozma merosini asrab-avaylashdagi davlat siyosati ilmiy asosga ega ekanini hamda ushbu sohadagi amaliy ishlar jahon andozalariga to'liq mos ravishda tashkil etilganini ko'rsatadi. Mazkur ilg'or tajriba boshqa mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston uchun ham o'rnak bo'lib xizmat qiladi.

TIKA seminari doirasidagi amaliy tajribalar. TIKa tashkiloti tomonidan Turkiyaning RAMI kutubxonasida o'tkazilgan 5 kunlik seminar davomida qo'lyozmalarni muhofaza qilish va restavratsiyalash sohasida amaliy bilim va ko'nikmalar yangidan rivojlantirildi. Seminarning asosiy maqsadi – mahalliy mutaxassislarni ilg'or texnologiyalar va zamonaviy laboratoriya usullari bilan tanishtirish, shu orqali milliy qo'lyozma fondlarini samarali muhofaza qilishni ta'minlash edi.

Seminar davomida qo'lyozmalarni saqlash va restavratsiyalashning qator mavzulari ko'rib chiqildi: qog'oz va teridan tayyorlangan muqovalarni tiklash, siyoh va rang moddalarini tahlil qilish, konservatsiya jarayonida harorat va namlikni nazorat qilish usullari, shikastlangan qo'lyozmalarni mexanik va kimyoviy ta'sirdan himoya qilish usullari, shuningdek, raqamlashtirish texnologiyalari.

Amaliy mashg'ulotlar laboratoriya sharoitida olib borildi. Ishtirokchilar qog'oz tiklash jarayonini mustaqil bajarish, siyoh tahlili usullari orqali qo'lyozmalarning

ta'rixiiy va madaniy xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, harorat va namlikni avtomatik tarzda nazorat qilish vositalari orqali optimal muhitni ta'minlash bo'yicha tajriba orttirdilar. Bu jarayonda zamonaviy uskunalar – yuqori aniqlikdagi skanerlar, mikroskoplar, ultrabinafsha tahlil vositalari va avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari qo'llanildi.

O'rganilgan usullarning afzalliklari bir necha jihatdan namoyon bo'ldi. Avvalo, laboratoriyadagi aniq monitoring va tahlil jarayoni qo'lyozmalarning zaharlanishi va shikastlanishining oldini olishga imkon berdi. Ikkinchidan, tiklash va konservatsiya usullari qo'lyozmalarning ilmiy va madaniy ahamiyatini saqlab qolgan holda amalga oshirildi. Uchinchidan, raqamlashtirish jarayoni orqali nodir asarlarning elektron nusxasi yaratildi, bu esa ularni xalqaro ilmiy jamoatchilikka taqdim etish imkonini yaratadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, seminar doirasidagi amaliy tajribalar nafaqat qo'lyozmalarni saqlash bo'yicha texnik ko'nikmalarni rivojlantirish, balki ularning tarixiiy, madaniy va ilmiy ahamiyatini aniqlash hamda ilg'or xalqaro tajribalarni O'zbekiston amaliyotiga tatbiq qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Turkiya tajribasini O'zbekiston amaliyotiga joriy etish imkoniyatlari. O'zbekiston qo'lyozma merosiga boy mamlakatlardan biri sifatida tarixiiy va ilmiy ahamiyatga ega ko'plab nodir asarlarga ega. Ammo tahlillar shuni ko'rsatadiki, mahalliy qo'lyozmalar fondidagi ko'plab asarlar hanuzgicha zamonaviy konservatsiya va restavratsiya texnologiyalari bilan ta'minlanmagan, fizik va biologik zararlanish xavfi yuqori. Shu bois, O'zbekistonda qo'lyozmalarni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Turkiya tajribasi, xususan RAMI kutubxonasi va TIKA loyihalari doirasidagi laboratoriyalarda qo'llanilayotgan zamonaviy usullar, O'zbekistondagi qo'lyozmalarni asrab-avaylashda samarali model bo'lishi mumkin. Buning uchun avvalo, mahalliy mutaxassislar malakasini oshirish va ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish zarur.

Shu bois birinchidan, TIKA tashkiloti hamkorligida malaka oshirish kurslari, amaliy seminarlar va ilmiy stajirovkalar tashkil etish tavsiya etiladi.

Ikkinchidan, O'zbekistondagi laboratoriya bazasini zamon talablari asosida modernizatsiya qilish lozim. Bunga qo'lyozmalarni fizik va ximiyoviy tahlil qilish, harorat va namlikni avtomatik tarzda nazorat qilish, yuqori aniqlikdagi skaner va raqamlashtirish uskunalarini joriy etish kiradi. Shu bilan birga, restavratsiya ishlari uchun alohida steril muhit va laboratoriya sharoitini ta'minlash ham muhim ahamiyatga ega.

Uchinchidan, Turkiya tajribasidan foydalanish orqali O'zbekiston qo'lyozma merosini elektron formatda saqlash va xalqaro ilmiy hamkorlikda taqdim etish imkoniyatlari kengayadi. Bu, o'z navbatida, milliy madaniy merosni asrab-avaylash va uni kelgusi avlodga asl holatida yetkazishda muhim ilmiy va amaliyot jihatidan

asoslangan mexanizmni yaratadi. Shu tariqa, Turkiya tajribasini O'zbekiston amaliyotiga integratsiya qilish nafaqat laboratoriya va texnik jihatdan samarali bo'lib, balki qo'lyozma fondlarini ilmiy, madaniy va huquqiy jihatdan kompleks muhofaza qilish imkonini ham ta'minlaydi.

Xulosa va takliflar

TIKA tashkiloti tomonidan Turkiyada o'tkazilgan 5 kunlik seminar qo'lyozmalarni muhofaza qilish va restavratsiyalash sohasida nafaqat amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, balki ilg'or xalqaro tajribalarni O'zbekiston amaliyotiga tatbiq etish imkoniyatini ham berdi. Seminar davomida qo'lyozmalarni saqlashdagi zamonaviy texnologiyalar, laboratoriyadagi maxsus uskunalar va metodikalar bilan tanishildi.

Turkiya tajribasini o'rganish va undan samarali foydalanish orqali O'zbekistonda qo'lyozma fondlarini zamon talablariga mos ravishda muhofaza qilish mumkin. Bu jarayon nafaqat qo'lyozmalarning fizik va biologik zararlanishidan himoya qilinishini, balki ularni raqamlashtirish va ilmiy tadqiqotlarda foydalanish imkoniyatini ham kengaytiradi.

Shuningdek, mahalliy mutaxassislarning malakasini oshirish, laboratoriya bazasini modernizatsiya qilish, zamonaviy uskunalar va texnologiyalarni joriy etish orqali milliy qo'lyozma merosni kelgusi avlodga asl holatida yetkazish imkoniyati yaratiladi.

Tavsiya qilinadigan asosiy chora-tadbirlar:

1. O'zbekistonda qo'lyozmalarni muhofaza qilish bo'yicha ilmiy-amaliy seminarlar va malaka oshirish kurslarini tashkil etish.
2. Laboratoriya bazasini zamonaviy uskunalar va monitoring tizimlari bilan jihozlash.
3. Turkiya tajribasi asosida restavratsiya va konservatsiya usullarini mahalliy sharoitga moslashtirish.
4. Qo'lyozmalarni raqamlashtirish va elektron arxiv yaratish orqali ularni xalqaro ilmiy hamkorlikka taqdim etish.

Shu tariqa, Turkiya tajribasidan foydalanish O'zbekiston qo'lyozma merosini asrashda samarali va tizimli yondashuvni ta'minlaydi hamda milliy madaniy boyliklarni kelgusi avlodga yetkazishda muhim ilmiy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akdoğan, E. (2020). Manuscript Conservation Techniques in Turkey. Ankara: National Library Publications.
2. Ayşegül Kocaman. Yazma eserlerde görülen kimyasal ve biyolojik bozunmalar. Training Seminar: TIKA. 2025.
3. Pınar Çakar Sevim & Ayşe Cansel Tuskan. Conservation Priority Survey. Training Seminar: TIKA. 2025.

4. Hazırlayan – Özge Nur Yildirim & Derya Talay. Yazma ve nadir matbu eser depolarında çevresel koşulların sağlanması ve yönetimi: ‘Sıcaklık, Işık ve Bağıl Nem Standartları ve Kontrolü, Havalandırma ve İklimlendirme Sistemleri’. Restoratör – Ümüt Yılmaz. Training Seminar: TİKA. 2025.
5. Restoratör – Merve Nur Kocaman. Sergilemede önleyici koruma tedbirleri ve kullanılan malzemeler. Türkiye Yazma Eserler Kurumu Başkanlığı. Kitap Şifahanesi ve Arşiv Dairesi Başkanlığı. Training Seminar: TİKA. 2025.
6. Adcock, Edward P., Kütüphane Malzemesinin Bakım ve Kullanımında IFLA İlkeleri, Çev. Ş.N. Somer, International Federation of Library Associations and Institutions Core Programme on Preservation and Conservation and Council on Library and Information Resources, İstanbul, 2011.
7. Alpaslan, A. S., Topkapı Sarayı Müzesi Kumaş Deposundaki Tekstilin Korunmasına Yönelik Yapılan Çalışmalar, 17. Müze Çalışmaları ve Kurtarma Kazıları Sempozyumu, 28 Nisan – 1 Mayıs 2008, Ankara, 2009.
8. Antomarchi, C. ve Verger, I., Kültür Mirasını Koruma El Kitabı 5- Depodaki Koleksiyonların Elleçlenmesi, Çev. M. Uğuryol ve M. Aydın, Kültürel Mirasın Dostları Derneği, İstanbul, 2016.
9. Şahin, F. (2018). Modern Approaches to Paper and Ink Analysis in Manuscript Restoration. Journal of Cultural Heritage, 17(3), 215–230.
10. Özdemir, R. (2017). Digitization and Conservation of Historical Manuscripts in Turkey. International Journal of Library Science, 5(2), 45–60.